



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA ETNOMADANIY QADRIYATLARNING DOLZARBLIGI**

**Arziqulov Elboy Azim o'g'li**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, dotsenti

### **Annotatsiya**

Maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida etnomadaniy qadriyatlarning transformatsion tabiati falsafiy-antropologik va madaniy-germenevtik yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda etnomadaniyatning ontologik maqomi, gnoseologik funksiyasi hamda aksiologik ahamiyati axborot-kommunikatsion texnologiyalar rivoji kontekstida qayta talqin etiladi. Shuningdek, raqamli sivilizatsiya sharoitida milliy identitetning rekonstruksiyasi, madaniy kodlarning dekonstruksiyasi va ularning semantik qayta ishlab chiqilishi masalalari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Maqolada etnomadaniyat jamiyatning ma'naviy-avtokorrelyatsion tizimi sifatida talqin qilib, uni global axborot makonida saqlash va rivojlantirish zaruratini konseptual jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborotlashgan jamiyat, etnomadaniyat, madaniy identifikatsiya, aksiologiya, gnoseologiya, ontologiya, raqamli sivilizatsiya, globalizatsiya, diskurs, madaniy kod, germenevtika, sotsiokultural transformatsiya.

## **АКТУАЛЬНОСТЬ ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ**

**Арзикулов Элбой Азим угли**

Ташкентский институт менеджмента и экономики, доцент

### **Аннотация**

в статье проводится всесторонний анализ трансформационного характера этнокультурных ценностей в контексте информационного общества на основе философско-антропологического и культурно-герменевтического подходов. Исследование переосмысливает онтологический статус, эпистемологическую функцию и аксиологическое значение этнокультуры в контексте развития информационно-коммуникационных технологий. Также на научно-теоретической основе рассматриваются вопросы реконструкции национальной идентичности, деконструкции культурных кодов и их семантической перестройки в контексте цифровой цивилизации. В статье этнокультура рассматривается как духовно-автокорреляционная система общества и раскрываются концептуальные аспекты необходимости ее сохранения и развития в глобальном информационном пространстве.

**Ключевые слова:** информационное общество, этнокультура, культурная идентичность, аксиология, эпистемология, онтология, цифровая цивилизация, глобализация, дискурс, культурный код, герменевтика, социокультурная трансформация.

## **THE RELEVANCE OF ETHNOCULTURAL VALUES IN AN INFORMATION SOCIETY**

**Arziqulov Elboy Azim ogli**

Tashkent Institute of Management and Economics, Associate Professor

### **Abstract**

The article comprehensively analyzes the transformational nature of ethnocultural values

in the context of an information society based on philosophical-anthropological and cultural-hermeneutic approaches. The study reinterprets the ontological status, epistemological function and axiological significance of ethnoculture in the context of the development of information and communication technologies. Also, the issues of reconstruction of national identity, deconstruction of cultural codes and their semantic redevelopment in the context of digital civilization are covered on a scientific and theoretical basis. The article interprets ethnoculture as a spiritual-autocorrelation system of society and reveals the conceptual aspects of the need to preserve and develop it in the global information space.

**Keywords:** information society, ethnoculture, cultural identity, axiology, epistemology, ontology, digital civilization, globalization, discourse, cultural code, hermeneutics, sociocultural transformation.

XXI asr ijtimoiy taraqqiyotining paradigmatic xususiyati sifatida axborotlashgan jamiyat fenomeni namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonda axborot ishlab chiqarish, uzatish va interpretatsiya qilish mexanizmlari ijtimoiy tizimning asosiy strukturaviy determinantiga aylanmoqda. Natijada jamiyatning ontologik modeli moddiy ishlab chiqarishga asoslangan industrial bosqichdan axborotga asoslangan postindustrial bosqichga o'tmoqda. Biroq mazkur transformatsiya jarayoni nafaqat texnologik evolyutsiyani, balki chuqur madaniy va aksiologik o'zgarishlarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, global axborot oqimlari sharoitida etnomadaniy qadriyatlarining dekonstruksiyasi, madaniy identitetning fragmentatsiyasi hamda an'anaviy semantik tizimlarning eroziyasi kuzatilmoqda. Shu bois etnomadaniyatni zamonaviy falsafiy diskurs doirasida qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

#### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Axborotlashgan jamiyat nazariyasi postindustrial sivilizatsiya konsepsiyasi doirasida shakllanib, uning asosiy metodologik asoslari D. Bell, M. Kastels, E. Toffler va Yu. Xayashi tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu olimlar axborotni ijtimoiy taraqqiyotning fundamental resursi sifatida talqin qilib, bilim va innovatsiyaning ijtimoiy strukturadagi determinativ rolini asoslab berganlar.

Zamonaviy falsafiy diskursda axborotlashgan jamiyat quyidagi uch asosiy aspektda tahlil qilinadi:

– **ontologik aspekt** — jamiyat borlig'ining substansional asoslari o'zgarib, "axborotli reallik" fenomeni shakllanadi;

– **gnoseologik aspekt** — bilish jarayoni mediatsiyalashgan xarakter kasb etib, sun'iy intellekt, algoritmik tafakkur va raqamli epistemologiya shakllanadi;

– **aksiologik aspekt** — qadriyatlar tizimi transformatsiyaga uchrab, utilitarizm, pragmatizm va virtual identifikatsiya ustuvorlik kasb etadi.

Bugun barchamizga sir emaski, "jahon virtual olamida mavjud bo'lgan dunyoni egallashga intilayotgan kiber tahdidlar insonning ma'naviy olamiga katta ta'sir ko'rsatayotganligi, virtual universal qurollar shaxsning mavqeini yo'qotishga, uning tabiiy mavjudligini sun'iy lashtirishga qaratilayotganligi xatarli holatlardir" [1]. Bu borada etnomadaniyat masalalari madaniyat falsafasi, sotsiologiya va antropologiya doirasida ko'plab tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, uni axborotlashgan jamiyat kontekstida kompleks va tizimli tahlil qilish zarurati hanz dolzarbligicha qolmoqda.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot interdisiplinar metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Xususan, quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

– **sotsiokultural yondashuv** — etnomadaniyatni ijtimoiy tizimning strukturaviy elementi sifatida tahlil qilib, uning ijtimoiy integratsiya va barqarorlikni ta'minlashdagi rolini aniqlashga xizmat qiladi;

– **aksiologik yondashuv** — etnomadaniyatni qadriyatlar tizimi sifatida interpretatsiya

qilib, uning ma'naviy ong va axloqiy me'yorlar shakllanishidagi o'rnini ochib beradi;

– **germenevtik yondashuv** — an'anaviy madaniy matnlar va ramzlarni zamonaviy kontekstda talqin etish, ularning semantik transformatsiyasini aniqlash imkonini beradi;

– **dialektik yondashuv** — global va lokal, an'ana va innovatsiya, real va virtual borliq o'rtasidagi ziddiyatli birlikni tahlil qilishga yo'naltirilgan;

– **diskursiv tahlil metodi** — axborot makonida shakllanayotgan madaniy narrativlar va identitet konstruksiyalarini o'rganishga xizmat qiladi.

#### **Tahlil va natijalar**

Etnomadaniyat tarixiy shakllangan sotsiokultural fenomen sifatida xalqning kollektiv ongini, madaniy xotirasini va identifikatsion mexanizmlarini o'zida mujassam etadi. U nafaqat madaniy meros, balki jamiyatning aksiologik va normativ tizimini belgilovchi muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi. "Markaziy Osiyoda qadriyatlar to'g'risidagi qarashlar rivojida VIII–XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom rasmiy hukmron dinga aylangan, ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan tinchlik hukm surayotgan edi" [2].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, etnomadaniyat quyidagi fundamental funksiyalarni bajaradi:

– **identifikatsion funksiya** — individ va jamiyatning o'zligini anglash (*self-identification*) jarayonini ta'minlaydi;

– **integrativ funksiya** — ijtimoiy birlik va solidaritetni mustahkamlaydi;

– **regulyativ funksiya** — axloqiy normalar va ijtimoiy xulq-atvorni tartibga soladi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ushbu funksiyalar transformatsiyaga uchramoqda.

Xususan:

– **raqamlashtirish fenomeni** — madaniy merosning digital formatga o'tishi uning saqlanishini ta'minlashda, semantik soddalashuv xavfini keltirib chiqaradi;

– **vizual-diskursiv kengayish** — etnomadaniy elementlar global kommunikativ makonda keng tarqalib, ularning interpretatsion pluralizmini kuchaytiradi;

– **madaniy gibridizatsiya** — turli madaniy kodlarning sintezi natijasida yangi identitet shakllari yuzaga keladi;

– **identitet krizisi** — tezkor axborot oqimlari sharoitida milliy o'zlikning fragmentatsiyasi va dekonstruksiyasi kuchayadi.

Natijada etnomadaniyat an'anaviy statik tizimdan dinamik va adaptiv tizimga aylanadi. U endilikda faqat tarixiy meros emas, balki raqamli borliqdagi faol semantik konstruktor sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuni ham ta'kidlash joizki, "axborot texnologiyalari turli milliy qadriyatlarni dunyoga tanitish uchun samarali platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va veb-platformalar orqali xalqning an'anaviy qadriyatlari, san'ati va madaniyati jahon hamjamiyatiga ko'rsatilmoqda. Milliy merosni targ'ib qilish, shu bilan birga, boshqa xalqlarning madaniyatini o'rganish orqali xalqaro muloqotlar va madaniy integratsiya rivojlanmoqda" [3].

#### **Xulosa va takliflar**

Axborotlashgan jamiyat sharoitida etnomadaniy qadriyatlar insoniyatning tarixiy-madaniy taraqqiyotini belgilovchi muhim aksiologik tizim sifatida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta'sirida etnomadaniyatning ontologik maqomi o'zgarib, u an'anaviy statik merosdan dinamik va adaptiv sotsiokultural tizimga aylanmoqda. Mazkur jarayon etnomadaniyatni zamonaviy sivilizatsion taraqqiyot kontekstida qayta talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, global axborot makonining kengayishi natijasida madaniy universallashtirish jarayonlari kuchayib, milliy identitetning fragmentatsiyasi va qadriyatlar tizimining transformatsiyasi kuzatilmoqda. Bu holat etnomadaniyatning gnoseologik va aksiologik funksiyalarini chuqurroq o'rganishni, uni jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida qayta baholashni taqozo etadi. Etnomadaniyat nafaqat madaniy meros, balki ijtimoiy ongni muvozanatlashtiruvchi va identifikatsion jarayonlarni tartibga

soluvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, etnomadaniyatni saqlash va rivojlantirish konservativ yondashuv bilan cheklanmasdan, balki innovatsion va germeneytik asosda amalga oshirilishi lozim. Ya’ni uni zamonaviy raqamli madaniyat bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish, global axborot makonida faol sotsiokultural subyektga aylantirish orqali milliy identitetni mustahkamlash mumkin.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Etnomadaniy merosni raqamlashtirish va tizimlashtirish maqsadida milliy madaniy resurslarning elektron bazalari, virtual muzeylar va interaktiv platformalarini yaratish hamda ularni xalqaro axborot makoniga integratsiya qilish zarur.
2. Ta’lim tizimida etnomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish, xususan, etnomadaniyatni zamonaviy falsafiy va sotsiokultural yondashuvlar asosida o‘qitish orqali yosh avlodning milliy identifikatsion ongini mustahkamlash lozim.
3. Milliy madaniy kontent ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, ya’ni etnomadaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi zamonaviy media mahsulotlar (audiovizual, raqamli va interaktiv shakllar)ni rivojlantirish orqali ularning ommaviy axborot makonidagi ta’sirini kuchaytirish maqsadga muvofiq.
4. Globalizatsiya sharoitida milliy identitetni rivojlantirishga qaratilgan kompleks madaniy siyosatni shakllantirish, bunda an’anaviy qadriyatlar va innovatsion jarayonlar o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlikni ta’minlash zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Juraqulov J.K. Axborotlashgan jamiyatda inson ma’naviy borlig‘ining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi (ijtimoiy-falsafiy tahlil): falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – B. 12.
2. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya). – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004. – B. 7.
3. Turapov V.M. Axborotlashgan jamiyat sharoitida axloqiy qadriyatlar transformatsiyasi // Tamaddun nuri / The Light of Civilization. – 2024. – 11-son (62). – B. 309.
4. Bell D. Postindustrial jamiyatning shakllanishi: ijtimoiy prognozlash tajribasi. – Nyu-York: Basic Books, 1973.
5. Masuda Y. Axborotlashgan jamiyat postindustrial jamiyat sifatida. – Tokio: Institute for the Information Society, 1981.